



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O`ZBEKİSTON RESPUBLİKASI YALPI İCHKİ MAHSULOTİNİNG TARMOQLAR BO`YİCHA TARKIBI.

Husanov Dostonbek Ruslonbek o’g’li

Buxoro Davlat Pedagogika instituti

*Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim
asoslari ta’lim yo‘nalishi 2GIQ-22 guruh talabasi*

Annotation: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi YaIMining tarkibiy tuzilishi va tarmoqlar bo‘yicha ulushi, ularning dinamikasi va o‘zaro ta’sirlari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor qishloq xo‘jaligi, sanoat, xizmat ko‘rsatish va boshqa iqtisodiy tarmoqlarning YaIMdagi o‘rni hamda iqtisodiy barqarorlik va diversifikasiya yo‘nalishidagi roliga qaratilgan. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar, iqtisodiy modellar va empirik tahlillar asosida xulosalar chiqarilib, mamlakat iqtisodiyotining yanada raqobatbardosh va barqaror rivojlanishi uchun tavsiyalar beriladi.

Kallit so’zlar: Yalpi ichki mahsulot(YAIM), Import, Exsport, Yalpi milliy mahsulot(YMM).

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti turli tarmoqlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning har biri mamlakat yalpi ichki mahsulotida (YAIM) muhim o‘rin tutadi. YAIMning tarkibi iqtisodiy rivojlanish darajasini, tarmoq va sohalarning o‘zaro bog‘liqligini hamda ularning milliy iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasini aks ettiradi. Mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari qishloq xo‘jaligi, sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasi va qurilish hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilib, sanoat va xizmatlar sohasi yanada rivojlanmoqda. Shu bilan birga, YAIM tarkibidagi har bir tarmoqning ulushi o‘zgarib bormoqda. Ushbu mavzuda O‘zbekiston YAIMining tarmoqlar bo‘yicha tarkibi tahlil qilinib, har bir sohaning iqtisodiyotga ta’siri o‘rganiladi.

Abstract: This article analyzes the structural structure and share of the GDP of the Republic of Uzbekistan by sector, their dynamics and interactions. The main attention is paid to the role of agriculture, industry, services and other economic sectors in GDP and their role in economic stability and diversification. The study draws conclusions based on statistical data, economic models and empirical analysis and provides recommendations for a more competitive and sustainable development of the country's economy.

Keywords: Gross Domestic Product (GDP), Import, Export, Gross National Product (GNP)

Introduction

The economy of the Republic of Uzbekistan consists of various sectors, each playing a crucial role in the country's Gross Domestic Product (GDP). The composition of GDP





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



reflects the level of economic development, the interconnection between different industries, and their contribution to the national economy. The key sectors of Uzbekistan's economy include agriculture, industry, services, and construction. In recent years, economic reforms have been implemented, leading to the growth of the industrial and service sectors. As a result, the share of each sector in GDP has been changing. This study analyzes the sectoral composition of Uzbekistan's GDP and examines the impact of each sector on the economy.

2023-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YIM) ilk bor 1 kvadrillion 66 trillion 569 milliard so‘mni tashkil etdi. Bu haqda Statistika agentligi hisobot berdi



Infografika: Statistika agentligi

O’tgan yilda mamlakat YIM hajmi 6 foiz o‘sib, 90,9 milliard dollarga (o‘rtacha almashuv kursi 11,737 so‘m) yetdi. Bu raqam aholi jon boshiga hisoblaganda 2,5 ming dollardan to‘g‘ri keladi.




Infografika: Statistika agentligi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Respublika yalpi ichki mahsuloti hajmi 2020-yilda 60,2 milliard dollarni, 2021-yilda 69,6 milliard dollarni, 2022-yilda 81,1 milliard dollarni tashkil etgan.



O'tgan yilning yanvar – dekabr oylarida mamlakatdagi korxonalar tomonidan 655,8 trillion so‘mlik (2022-yildagidan 6 foiz ko‘p) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi 426,2 trillion so‘mni (2022-yildagidan 4,1 foiz yuqori) tashkil etdi.



O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining shakllanishida Toshkent shahri 17,1 foiz ulush bilan eng katta hissa qo‘shdi. Toshkent (10,1 foiz) va Navoiy (7,7 foiz) viloyatlari keyingi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush esa Sirdaryo viloyati (2 foiz), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (3,1 foiz) va Jizzax viloyati (3,1 foiz) hissasiga to‘g‘ri keldi.[1]

2022- yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yalpi ichki mahsulot (YAIM)

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasining YAIMi hajmi joriy narxlarda 389 631,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 5,4 % ga o‘sdi. YAIM deflyator indeksi 2021- yilning yanvariyunidagi narxlarga nisbatan 115,2 % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarda 10 994,9 ming so‘mni (yoki 995,3 AQSH dollari ekvivalentida) tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 3,3 % ga o‘sdi.

YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

(YAIM)-389 631,2 +5,4 % YAIM Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 76 198,0 +2,7 % Sanoat Qurilish 25 816,5 +6,2 % Xizmatlar 104 181,0 +5,1 % 150 702,2 +7,3 %

Mahsulotlarga sof soliqlar: 32 733,5 +4,6 % YAIM hajmi, mlrd. so‘m

YAIM o‘sish sur’ati, % da 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, YAIM tarkibida tovarlar ishlab chiqarishda 206 195,5 mlrd. so‘m, xizmatlar ko‘rsatish sohasida – 150 702,2 mlrd. so‘m miqdorida yalpi qo‘shilgan qiymat yaratildi, mahsulotlarga sof soliqlar esa 32 733,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. [2.2]

O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoat va xizmatlar sohasining ulushi qisqardi

2020 yilning yanvar-sentabr oylarida O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi joriy narxlarda 408,3 trln so‘mni tashkil etdi.

O‘tgan yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda, iqtisodiyotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibida katta bo‘lmagan o‘zgarishlar kuzatildi, deb xabar bermoqda Davstatqo‘m.Qayd etilishicha, YaIM tarkibida sanoatning ulushi 29,3 foizdan 28,5 foizga, xizmatlar sohasining ulushi 36,5 foizdan 36,2 foizga kamaygan bo‘lsa, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi 27,3 foizdan 27,9 foizga, qurilish tarmog‘ining ulushi 6,9 foizdan 7,4 foizga oshdi.2019 yilning yanvar-sentabr oylarida esa 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda, YaIM tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi ulushining 27,3 foizgacha pasayishi (2018 yilning yanvar-sentyabrida – 31,0 foiz) va sanoat tarmog‘i ulushining 29,3 foizgacha oshishi (2018 yilning yanvar-sentyabrida – 26,4 foiz) bilan bog‘liq sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan.[3]

O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti 2023-yilda 1,07 kvadrillion so‘mga yetdi

O‘zbekiston iqtisodiyoti 2023-yilda 6 foizga o‘sib, 1,07 kvadrillion so‘mni (90,8 milliard dollarga yaqin) tashkil etdi. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi 28,98 million so‘mga (2468 dollar) o‘sdi, deya xabar bermoqda Statistika agentligi.Prezident huzuridagi Statistika agentligi [ma’lumotlariga](#) ko‘ra, 2023-yil yakuniga ko‘ra O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot hajmi joriy narxlarda 1,07 kvadrillion so‘mni tashkil qildi.Iqtisodiy o‘sish 2022- yil darajasiga nisbatan 6 foizga yetdi. O‘rtacha dollar kursi bo‘yicha (11 741 so‘m) o‘tgan





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



yili nominal YAIM 90,8 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2022-yilga nisbatan 10,4 milliard dollarga ko‘pdir. YAIM haqida bat afsil ma’lumotlar Statistika agentligining YAIM ishlab chiqarish bo‘yicha alohida hisobotida e’lon qilinadi. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 28,98 million so‘mni (2468 dollarga yaqin) tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 4,07 million so‘mga yoki so‘m bilan ifodalanganda 16,3 foizga (9,4 foizga yoki 213 dollarga) oshdi. Sanoat sohasida o‘sish 6 foiz — 655,8 trillion so‘mni tashkil etadi. Sanoat ishlab chiqarishining umumiyligi hajmida ishlab chiqarish sanoatining ulushi 84,4 foizni, tog‘-kon sanoati va karerlarni qazib olishning ulushi 8,4 foizni, elektr ta’minoti, gaz, bug‘ va havoni tozalash 6,7 foizni, suv ta’minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish tarmoqlarida 0,5 foizni tashkil etdi. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining hajmi 4,1 foizga oshib, 426,3 trillion so‘mni tashkil etdi. Fermer xo‘jaliklari toifalari bo‘yicha tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiyligi hajmining 63,1 foizi dehqon va yordamchi xo‘jaliklar, 29,8 foizi shaxsiy fermer xo‘jaliklari, 7,1 foizi qishloq xo‘jaligi tashkilotlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Qurilish sohasi 6,4 foizga (149,86 trillion so‘mgacha), xizmatlar sohasi 6,8 foizga (470,3 trillion so‘mga) o‘sidi.[4]

Xulosa:

O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining (YAIM) tarmoqlar bo‘yicha tarkibi mamlakat iqtisodiyotining qaysi sohalari ustuvor ekani va qaysi tarmoqlar rivojlanishiga alohida e’tibor qaratish kerakligini ko‘rsatadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston YAIM tarkibida xizmat ko‘rsatish sohasi yetakchi o‘rinda turib, iqtisodiyotning diversifikatsiyalanganligini aks ettiradi. Sanoat va qurilish tarmoqlari ham jadal rivojlanib, mamlakatning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i esa mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutib, ichki talabni qondirish va eksport salohiyatini oshirishga hissa qo‘shmoqda. Umuman olganda, O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘sish sur’atlarini saqlab qolmoqda. Kelgusida texnologik yangilanish, innovatsiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali YAIM tarkibida sanoat va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://daryo.uz/2024/02/08/ozbekiston-yalpi-ichki-mahsuloti-90-milliard-dollardan-oshdi>
2. https://stat.uz/images/uploads/relij2021/yalpiichkimax_270722_uzb.pdf
3. <https://kun.uz/96521478#>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/20/gdp/>

